

## DARSDAN TASHQARI TADBIRLARDA O`QUVCHILARNI EKOLOG-TARG`IBOTCHILIKGA TAYYORLASH MASALALARI

Xojanov Bahadir Keunimjaevich

Nukus davlat pedagogika instituti, Boshlang`ich ta`lim kafedrasи o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7348352>

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada yoshlar o`rtasida ekologik bilimlarni samarali targ`ib etish, ularda tabiat va atrof-muhitga nisbatan ijobjiy munosabatni qaror toptirish, umumiy o`rta ta`lim maktablari o`quvchilaridan ekolog-targ`ibotchilar tayyorlash o`ta dolzARB muammo sifatida yoritib beriladi.*

**Kalit so`zlar:** targ`ibot, tashviqot, ekologik tashviqot-targ`ibot, ekologik ongsizlik, ekologik idrok, ekologik tafakkur, ekologik ma`sullik, ekologik faoliylik, ekologik faoliyatsizlik, ekologik madaniyat, ekologik madaniyatsizlik ekologik ma`naviyat.

## ВОПРОСЫ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К ЭКОЛОГИЧЕСКОМУ ИССЛЕДОВАНИЮ ВО ВНЕУЧЕБНЫХ МЕРОПРИЯТИЯХ

**Аннотация.** В данной статье в качестве актуальной проблемы выделены эффективное продвижение экологических знаний среди молодежи, формирование у них положительного отношения к природе и окружающей среде, подготовка экологов-пропагандистов из учащихся общеобразовательных школ.

**Ключевые слова:** пропаганда, поощрение, экологическая поощрения-пропаганда, экологическое бессознательство, экологическое восприятие, экологическое мышление, экологическое обязательство, экологическое активность, экологическое пассивность, экологическая культура, экологическое некультурность, экологическое духовность.

## ISSUES OF PREPARING STUDENTS FOR ENVIRONMENTAL RESEARCH IN EXTRA-EDUCATIONAL EVENTS

**Abstract.** This article highlights the effective promotion of environmental knowledge among young people, the formation of a positive attitude towards nature and the environment, the training of environmentalists-propagandists from students of secondary schools as an urgent problem.

**Keywords:** propaganda, encouragement, ecological promotion-propaganda, ecological unconsciousness, ecological perception, ecological thinking, ecological obligation, ecological activity, ecological passivity, ecological culture, ecological non-culture, ecological spirituality.

Bugungi kunda xalqaro miqyosda insoniyatning tabiat bilan uyg`unligi, o`quvchilarni tabiat, atrof-muxit bilan o`zaro munosabatda bo`lishni tarbiyalash bo`yicha kognitiv, texnologik, motivatsion, reaktiv, evristik mezonlar tahlili, texnologik yondashuvlarnining o`qitish samaradorligiga ta`sir etuvchi xossalalarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko`rsatadiki, o`quvchilarning tabiat bilan uyg`unligi va bir butunligi haqidagi tasavvurlarini shakllantirish, o`quvchilarni tabiat, atrof-muhit bilan munosabatda bo`lishni, ekolog-targ`ibotchilik ishlarni olib borishga o`rgatishga va tashkil etish tizimini takomillashtirishga, atrof-muhitniga nisbatan g`amxo`rlikda bo`lishi, ularning ekologik tarbiyaga va ekolog-targ`ibotchilikga oid zarur tayanch va xususiy kompetentsiyalarini shakllatirishga ko`ra nazariy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Insoniyat paydo bo`lganidan to hozirgi kunga qadar tabiatga ta`sir etib, uni batamom o`zgartirib yubordi. Ayniqsa, so`nggi chorak asr mobaynida insoniyatning texnik-texnologik

mehnat faoliyati natijasida Er shari yuzasi, iqlimi, o`simligi, hayvonot dunyosi, atmosfera havosi o`zgarib ketdi, suvning ifloslanishi, o`rmonlarning keragidan ortiq darajada qirqib yuborilishi, er yuzida tuproq nurashi, hayvonlar va baliqlarning ko`plab ovlanishi, yangi shahar, yo`l aeroportlarning qurilishi, harbiy urushlar natijasida inqiroz yuzaga keldi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi 434-son “O`zbekiston Respublikasida ekologik ta`limni rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, shuningdek, hozirgi davrning ekologik muammolari bu sohada ham tashviqot-targ`ibot olib boradigan kadrlar tayyorlashni ustivor vazifalardan biri qilib qo`ymoqda. Ayniqsa, umumiy o`rta ta`lim o`quvchilaridan ekologik tashviqotchi-targ`ibotchilar tayyorlash bu sohadagi kechiktirib bo`lmaydigan muammo hisoblanadi. Ekologik tashviqot-targ`ibot ma`naviy tarbiyaning muhim ko`rinishidir.

Ekologik tashviqot-targ`ibotdan ko`zlangan maqsad nafaqat ekologik bilim orttirish, balki kishini biror-bir hatti- harakatga undovdan iboratdir. Bunda matabda o`qitilayotgan fanlarni DTS lari talablariga mos bo`lishi nazarda tutiladi.

«Targ`ibot» atamasining o`zagini «rag`bat» so`zi tashkil etgani bois u insonni biror harakatga rag`batlantirishni nazarda tutadi.

«Tashviqot» tushunchasi «shavq» so`zidan olingan bo`lib u kishida biror narsaga shavq, ishonch tuyg`ularini o`yg`otishga yo`naltirilgan.

Ekologik tashviqot-targ`ibotda ekologik bilimlarni egallahga ehtiyoj tug`iladi hamda er, suv, to`proq, o`simliklar, hayvonot dunyosi, tarix, adabiyot shuningdek, ma`naviyat asoslari, siyosatshunoslik kabi bilim sohalarini puxta egallah talab etiladi. SHuning bilan birga bu sohadagi ishlar tabiiy va ijtimoiy fanlarni o`qitishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqishni taqoza qiladi.

Targ`ibotchilik jarayonining nazariy bayoni 6 ta o`zaro bog`liq bo`lgan aspektlarga ajratiladi:

- 1). **Kim xabar bermoqchi?**- beriladigan ma`lumot tahlili.
- 2). **Nimani xabar qilmoqchi ?**- mazmun tahlili.
- 3). **Qaysi tarmoq bo`yicha?** – vositalar tahlili (qanday xabar beruvchi vositalardan foydalanadi).
- 4). **Kimga xabar bermoqchi ?** – auditoriya tahlili.
- 5). **Xabarni qalay berish kerak?**- xabar berish sifatining tahlili.
- 6). **Qanday yutuqlar bilan ?** - olingan natijalar tahlili.

O`quvchilar bilan olib boriladigan targ`ibotchilik ishining yutuqlari ko`pgina psixologik faktlarga bog`liq. Ulardan biri xabarda ma`lumotlarning birlamchiligidir. Chunki, inson birinchi o`rinda o`zining qarashlariga to`g`ri keladigan xabarlarni yaxshi va tez qabul qiladilar. Boshqalaridan esa, qabul qilishdan o`zlarini olib qochishga xarakat qiladilar.

Targ`ibot- tashviqot ishlarining muvofaqiyatli amalga oshishi uchun targ`ibot ishini olib boruvchi to`garaklarga ishonchning bo`lishi va ularning qanday obruga ega ekanligiga va komponentligiga bog`liq bo`ladi. SHuning uchun ham matabda tashkil etiladigan targ`ibot-tashviqot ishlarini to`g`ri tashkil eta olish va ularga qabul qilingan a`zolarni kengroq ma`lumotlar bilan qurollantirib, ularning obrularini oshirib borish kerak bo`ladi.

YOshlar o`rtasida ekologik bilimlarni samarali targ`ib etish, ularda tabiat va atrof – muhitga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirish, umumiy o`rta ta`lim maktablari o`quvchilaridan ekolog- targ`ibotchilar tayyorlash o`ta dolzarb muammo hisoblanadi.

Uzoq muddatli kishilik taraqqiyoti tarixi davomida tabiatga nisbatan mehr- muhabbatli munosabatda bo`lishi yoki aksincha, unga zarar etkazuvchi holatlarning barchasi ahloqiy me`yorlar yordamida tartibga solingan. Tabiat va inson manfaatlari kesishgan nuqtada shaxsning tarbiyalanganlik darajasi axloqiylik, axloqiy etuklik, axloqiy ong, axloqiy tafakkur hamda axloqiy madaniyatlik kabi mezonlar bilan o`lchangan.

Endilikda atrof muhitga ta`sir etayotgan inson faoliyati ekologik onglilik, ekologik ongsizlik, ekologik idrok, ekologik tafakkur, ekologik ma`sullik, ekologik faollik va ekologik faoliyatsizlik, ekologik madaniyat va ekologik madaniyatsizlik ekologik ma`naviyat, kabi tushunchalar asosida baholanmoqda. O`z - o`zidan ravshanki, mazkur tushunchalar mazmunida axloqiy asoslar ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Bizning e`tiborimizni tortgan, jamiyat ijtimoiy hayoti hamda ekologik tizim doirasida o`ziga xos o`rin tutuvchi va shaxs xulq - atvori, xatti - harakati va faoliyatining etakchi sifat ko`rsatgichi bo`lgan ekologik ongning mazmuni nimadan iborat, u qachon va qanday holatda namoyon bo`ladi, uni shakllantirish yo`llari qanday, buning uchun qanday ekologik tashviqot-targ`ibot ishlarini olib borishimiz kerak va uni qanday amalga oshirish mumkin kabi savollar majmui tadqiqot ishimizni olib borish jarayonida o`z echimiga ega bo`lishi uchun harakat qildik. Ishning mazmunini ochib berish borasidagi dastlabki sayi harakat – “ekologik madaniyat” tushunchasini sharhlash, uning ilmiy - pedagogik asoslariga urg`u berish, so`ng esa ong, ongsizlik, ekologik ong haqida fikr yuritishidan iborat.

Tabiat va inson o`zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo`ladi. Bu qonuniyatlarni buzush o`nglab bo`lmas ekologik falokatlarga olib keladi. Bu muammolarni hal etish yoshlarning bilimi, ongi, aql zakovatiga bog`liqligini keltirib o`tadi.

Har bir maktab o`quvchisi ona tabiatni o`zi yashaydigan uy deb bilishi, uning komponent(havo, suv, tuproq)larini esa, yashashim, o`qishim va bilim olishim uchun zarur bo`lgan muqaddas manba deb hisoblashi zarur.

Tabiat va jamiyat borasida g`amxo`rlik ko`rsatiladigan jamiyatdagina inson va tabiat o`zaro munosabatlarining haqiqiy qulay-shakllari mavjud bo`la oladi. Bunday jamiyatda ijtimoiy ishlab chiqarish va tabiatni muhofaza etishga, arning sho`rlanishi, suvning ifloslanishi, o`lkaning flora, fauna sistemasining buzilishi, atrof-muhitni asrashga da`vat qilish maqsadlari o`rtasida hech qanday zarurat bo`lmaydi. Atrof-muhitni muhofaza etish uchun kurashishga da`vat etish, targ`ibot- tashviqot ishlarini olib borish so`zsiz, mustaqil respublikamizdagi har bir o`quvchining fuqarolik burchiga aylanmog`i lozim. SHuni alohida ta`kidlab o`tish lozimki, yoshlarning ekologik ongning shakllantirishning muhim yo`nalishlaridan biri – ularda tabiatga bo`lgan axloqiy munosabatlarni tarbiyalashdir.

Tabiatni sevish, suv, tuproq, olov va havoni e`zozlash, dunyodagi jamiki ezgu amallarni pok va bus-butun saqlashga da`vat etishi, insoniyat o`zi o`sib ulg`aygan ona – zaminni, atrof muhitni yuksak e`tiqod-ila ardoqlashga hozirgi avlodlarga o`tmish ajdodlardan qolgan merosdir. “Er, havo, suv va olov(Quyosh) Markaziy Osiyoda qadimdan e`zozlab kelingan, ajdodlarimizning zardushtiylikdan tortib, to islomgacha bo`lgan barcha dinlar tomonidan munosib qadrlab kelingan” Maktab o`quvchilari avvalo, inson, uning madaniyatini, tabiat, tabiatni tashkil etuvchi (quyosh, havo, suv, tuproq) komponentlarini va tabiat muhofazasiga oid eng zarur tushunchalar mohiyatini bilishga harakat qilishlari kerak bo`ladi.

Ana shundagina, o`simliklarni payhon qilmaslik, gullarni yulmaslik, o`rmonlar, ko`chalarda yurganda shovqin chiqarmaslik; atrofga axlat to`kmaslik, yong`in chiqarmaslik,

daraxtlarni kesmaslik; tuproq, havo, suvni iflos qilmaslik, yirtqich hayvonlarni o`ldirish mumkin emasligi, energiya, Er va suvdan unumli foydalanish zarurligi anglab etadi. Bu esa, o`quvchida o`z Vatani sharafini ongli ravishda himoya qilishga, uning qonun, qarorlarini sidqidildan bajaradigan inson sifatida tabiat va uning komponentlarini qo`riqlashga, uning eng yaqin ishonzchli do`sti va himoyachisi bo`lishga da`vat etadi.

O`quvchi tabiat va uning qonuniyatlarini, sirlarini bilib olishga intiladi, har qanday sharoitda ham tabiat, atrof muhitni qo`riqlash va uning boyliklaridan unumli foydalanish g`oyalarini qo`llab-quvvatlashga, shunga amal qilib ongli ravishda, faol targ`ib etishga harakat qiladi.

Bunday ishlarni amalga oshirish makteblarda tashkil etiladigan sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni jarayonida amalga oshiriladi. Ilg`or o`qituvchilar makteblardagi mavjud imkoniyatlarni hisobga olib, muktab va darsdan tashqari vaqtarda o`tkazilgan mashg`ulotlar mazmuniga ekologiyaga oid bilimlarning xilma-xil jihatlarini singdirishga harakat qilmoqdalar. Ayniqsa, biologiya, kimyo, fizika, mehnat ta`limi o`qituvchilar o`quvchilarni asosiy ekologik g`oyalar va tushunchalar bilan tanishtirishda ekologiyaga doir materiallar mazmuniga tayanib, ish olib boradilar.

Ekologik-targ`ibotchilik bo`yicha tashkil etiladigan sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarga guruh rahbarlarining tarbiyaviy soatlari, suhbatlar, savol-javob, bahs yoki munozaralar, og`zaki jurnal, viktorina, turli hil ko`rgazmalar, to`garak yoki klublar faoliyati kiradi.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning shakllari o`quvchilar soni va mashg`ulot o`tkazilishiga bog`liq holda har xil, ommaviy, guruhlarda va yakka tartibda bo`lishi mumkin.

O`quvchilarda ekologik ongni shakllantirishda makteblarda tashkil etiladigan ekolog-targ`ibotchilarini tayyorlovchi to`garaklarning o`rin behiyosdir.

Ekolog- targ`ibotchilarini tayyorlash uchun tashkil etiladigan to`garaklarda olib boriladigan targ`ibot ishlarni quyidagi uchta: og`zaki, ko`rgazmali va ommaviy axvorot vositalari orqali namoyon etish mumkin.

Ko`rgazmali targ`ibot vositalariga: ekologik mavzuga bog`liq bo`lgan plakatlar, chaqiriqlar, fotogazetalar, devoriy gazetalar, karikaturalar, ilmominatsiyalar, ko`rgazmalar, me`moral xonalarni tashkil etishni kiritish mumkin.

Ommaviy axborot vositalariga – ekologik masalalarni ko`rsatuvchi kinofil`mlar, gazetalar va jurnallarda maqolalar chop ettirish, radio eshittirishlar, televideniedan chiqishlar tayyorlash, magnitafondan foydalanish, bayram kechalarini tashkillashtirishlarni kiritishga bo`ladi.

Og`zaki targ`ibot vositalariga- ekologik masalalarni ochib beruvchi dokladlar, chiqishlar, ma`ruzalar, hisobotlar, viktorinalar, xabarlar, musabaqalar, suhbatlar, uchrashuvlar, diskussiyalar, gaplashishlar, dramalashtirilgan chiqishlar (badiiy asarlar o`qib berish) va fol`klorli (ashulalar) turlarni kiritish mumkin. Masalan, «Zakovat klub» musobaqasini o`tkazishni quyidagicha keltirish mumkin. Musobaqaning maqsadi quyidagicha belgilangan: Ekologik ta`lim va tarbiyani o`quvchilar ongiga singdirish, o`z Vatanini sevadigan va uni himoya qilishga tayyor, e`tiqodi but, sog`lom dunyoqarashli insonlar qilib tarbiyalash.

O`quvchilarning musobaqaga qadar egallashi lozim bo`lgan bilimlari doirasiga quyidagilar kiradi: Ekologiya haqida ma`lumotlarga ega bo`lish, ekologiya fanining rivojlanish tarixi va uni o`rganish uchun zaruriyatning nima sababdan payda bo`lganligi, tabiat, atrof-muxit

muhofazasi to`g`risida qonunlarni bilish, tabiatni tashkil etuvchi (quyosh, havo, suv, tuproq) komponentlarini va tabiat muhofazasiga oid eng zarur tushunchalar bilish.

Tadbirni o`tkazishda quyidagi pedagogik shart–sharoit vujudga keltiriladi: Tadbir 40-50 o`quvchiga mo`ljallangan yig`ilish xonasida o`tkaziladi. Unda "Zakovat klubi" tipida o`quvchilar o`rtasida intellektual o`yin-musobaqa o`tkaziladi. Musobaqa sharti bo`yicha 1-turda o`quvchilarning ekologiya fanining rivojlanish tarixi va uni o`rganish uchun zaruriyatning nima sababdan payda bo`lganligiga oid bilimlari sinaladi. Bunda quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

1. Ekologiya atamasi Kim tomonidan va qachon fanga kiritilgan?
2. O`quvchilar o`rtasida ekologik targ`ibot ishlarini olib borish kerakmi, nima uchun kerak deb o`ylaysiz?- kabi savollar.

2-tur musobaqada tabiat, atrof-muxit muxofazasi to`g`risidagi qonun bo`yicha tuzilgan masalan, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55 moddasi nima haqida? «O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49- moddasida nima delingan?- kabi savollardan foydalaniladi.

3-tur shartida esa zakovat klubida ishtirok etayotgan raqib guruhlarning bir-biriga beradigan savol-topshiriqlari asosiy manba bo`lib xizmat qiladi. Har ikki guruh ishtirokchilari 3 tadan savol tayyorlab, konvertga joylaydilar. Raqib guruh qatnashchisi o`zi tanlab olgan konvert ichidagi savolga javob berishi lozim.

Musobaqani baholash o`quvchilar tomonidan belgilangan hay`at a`zolari hukmiga havola qilinadi.

Tadbirlarda qo`llaniladigan bu xildagi noan`anaviy tarbiya shakllari o`quvchilar faoliyatini rivojantirish, ularni mustaqil fikrlashga o`rgatish, avvalo, inson, uning madaniyatini, tabiat, tabiatni tashkil etuvchi (quyosh, havo, suv, tuproq) komponentlarini va tabiat muhofazasiga oid eng zarur tushunchalar mohiyatini anglashlariga yordam beradi.

Ekologik targ`ibot bo`yicha sinfdan tashqari sharoitda yo`lga qo`yilayotgan harakatlar muayyan jamoa faoliyat bilan chambarchas bog`liq. O`quvchilarning birgalikdagi ishlari mehnat faoliyati, tengdoshlar bilan muloqat ular o`rtasida o`rtoqlik, o`zaro yordam sifatlarini tarbiyalaydi, ekologik- targ`ibotchilik bilimlarini ushbu muhitda targ`ib etish esa ularda atrof-muhit tozaligi va inson salomatligini muhofazalash yo`lida birgalikda kurashish tuyg`usini qaror toptiradi. Sinfdan tashqari sharoitda amalga oshirilayotgan pedagogik ishlar o`quvchilarning dunyoqarashini kengaytirib qolmay, balki ularning ekologik va targ`ibotchilik bilimlari darajasini chuqurlashtiradi.

Mazkur masala yuzasidan olib borilgan tadqiqot jarayonida asosiy maqsadni amalga oshirishga xizmat qiluvchi tarbiyaviy soat, fakul`tativ va to`garak mashg`ulotlari rejali uchun tuzib olishga qaratildi.

Tarbiyaviy soat xafthaning shorshanba kuni birinchi soatda o`tkazildi. Mazkur mashg`ulotni muayyan sinf rahbari etib tayinlangan o`qituvchi tashkil etadilar. Mashg`ulot jarayonida o`rganiluvchi mavzular 5-6- sinflar uchun alohida tuzildi. Bu o`rinda sinf rahbarlari o`z ustida ishlash, mavzularni mahalliy sharoit va milliy qadriyatlarga bog`lash, o`quvchilarning qiziqishlari va yosh xususiyatlari hisobga olish talab etiladi. Mashg`ulot jarayonida o`quvchilar ekologik- targ`ibotchilik bilimlarini qo`shimcha adabiyotlar va ko`rgazmali qurollar, uchrashuv, baxs-munozara, davra suhbatlari asosida tushuntirishga alohida e`tibor qaratish lozim. Sinfdan

tashqari sharoitda tashkil etiluvchi ekologik- targ`ibot ishlariga umumiy o`rtta ta`lim maktablari rahbarlari, fan o`qituvchilari va sinf rahbarlari jalb etildi.

«YOsh ekolog- targ`ibotchilar» to`garagi ish rejasi maktab Pedagogik Kengashi tomonidan tasdiqlandi. To`garak ish rejasiga muvofiq ta`lim muassasasi rahbari, fan o`qituvchilari, sinf rahbarlari amalga oshiriluvchi tadbirlar mohiyati borasida fikr almashib borildi. Muhokama jarayonida ilgari surilgan takliflar asosida faoliyat rejasi mazmunan boyitilib borildi.

«YOsh ekolog- targ`ibotchilar» to`garagida olib boriladigan ishlar mohiyatiga ko`ra yakka tartibda, guruh asosida, shuningdek, ommaviy ravishda olib borilishi maqsadga muvofiq deb topildi. To`garak a`zolari tomonidan olib boriladigan ishlar yo`nalishi va g`oyasiga ko`ra quyidagicha taqsimlandi.

1. To`garak a`zolari yakka tartibdagi faoliyat mazmuni:

- sinf xonalarida gullarning bo`lishiga e`tibor berish va uni parvarishlash.

-maktab er uchastkasidan mazkur sinf uchun ajratilgan maydonlarga mavsumga qarab ishlov berish ishlarida alohida mas`ulligini his qilish.

-sinf, maktab, mahallalarda shanbaliklarni tashkil qilish va faol ishtirok etish.

-ariqlardagi oqar suvlarning tozaligiga e`tibor berish,

- sinf rahbari bilan birgalikda ekskursiyalar tashkil etish va ularning natijalari haqida axborot tayyorlash,

- sinf rahbarlari boshchiligidagi ekologik- targ`ibot ishlari buyicha uchrashuvlar, kechalar va suhbatlar tashkil etish.

YAKKA tartibda ish olib boruvchi o`quvchi albatta bu ishlarni sinf rahbari boshchiligidagi hamda o`quvchilar yoki to`garak a`zolari bilan birgalikda olib borishi maqsadga muvofiqliqdir.

2. Guruh bilan olib boriladigan tadbirlar mazmuni va yo`nalishi:

- Maktab va maktabdan tashqarida ekologik-targ`ibot ishlarini olib borish,

-Bolalar bog`chalarida ham ekologik muammolar, ularning oldini olishga yordam berishdagi ularning ham o`z o`rinlari bor ekanligi haqida ekologik-targ`ibot ishlarini olib borish,

- maktab hamshirasi bilan birgalikda maktab uchastkasining ekologik tozaligi o`zlarining salomatligiga ta`siri haqida o`quvchilar orasida targ`ibot- tashviqot ishlarini olib borish.

3. To`garak a`zolari tomonidan ommaviy tarzda uyushtiriladigan tadbirlarning mazmuni va yo`nalishi:

-o`quvchilar ishtirokida ekologik targ`ibot-tashviqot ishlari yuzasidan sinflararo tadbirlar tashkil etish,

- xo`jalik rahbarlari, mahalla faollari, tabiatni muhofaza qilish organlari xodimlari ishtirokida atrof muhit muhofazasi, ekologik muammolarning inson salomatligiga ta`siri mavzularidagi davra suhbatlari, munozalar uchrashuvlar, suhbatlar, bahslar uyushtirish,

- boshlang`ich sinflar o`rtasida ekologik-targ`ibot ishlarini olib borishda sinf rahbarlariga yordam ko`rsatish,

-«YOsh ekolog- targ`ibotchilar» to`garagi organi bo`lgan gazetalar va fotolavhalar tayyorlab borish,

-«YOsh ekolog- targ`ibotchilar» to`garagida olib borilayotgan ishlarning yutuq va kamshiliklari haqida axborot tayyorlash.

To`garak mashg`ulotlarini tashkil etishda birqancha talablarga rioya qilish kerak bo`ladi:

-mashg`ulotlarning psixologik yo`nalishi, pedagogik saviyasi va o`quvchilarning ma`naviy-ekologik tarbiyasiga beriladigan urg`uni, ekologik ongni shakllantirish bilan bir vaqtida kechadigan ekologik tarbiya saviyasini oshirish;

- tabiat vositalarini ekologiyaga bog`lagan holda to`garak a`zolarining ekologik-targ`ibotchilik tarbiyasi amaliy yo`nalishini kuchaytirish;

- mashg`ulotlar o`quvchilarni tabiat bilan yaqindan muloqatda bo`lishga, ona tabiatni kuzatish bilan bir vaqtida uni tushunishga, tabiatning birligini saqlash va uni kupaytirish bo`yicha faoliyatni rivojlantirishga, o`quvchilarning jismoniy va axloqiy sog`ligini mustahkamlashga xizmat qilishi kerak.

Ekolog- targ`ibotchilar jamoasida yuzaga kelgan sog`lom psixologik muhit, o`zaro hamjihatlik, bir-biriga bo`lgan ishonch va hurmat darsdan tashqari ekologik-targ`ibotchilik tadbirlarining samarali bo`lishida muhim omil bo`lib hizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, darsdan va maktabdan tashqari tadbirlar jarayonida o`quvchilarda ekologik-targ`ibotchilik bilimlarini o`zlashtirish hayotiy zaruriyat va uni boshqalarga targ`ib etish xavfsiz hayot tarzi garovi sanaladi, shuningdek, ularda ekologik-targ`ibotchilik borasidagi bilimlarini mustaqil ravishda o`zlashtirish ko`nikmasini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

## REFERENCES

1. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi 434-sont “O`zbekiston Respublikasida ekologik ta`limni rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi qarori.
2. Ergashev A. Umumiy ekologiya.-Toshkent: O`zbekiston, 2003
3. O`zbekiston ekologik harakati dasturi. Toshkent: «Chinor ENK» ekologik nashriyot kompaniyasi, 2009.
4. «Uzluksiz ekologik ta`lim: muammolar va echimlar», Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari, Toshkent, O`zPFITI, 2007 yil
5. Turdiqulov E.O. O`quvchilarda umumbashariy ekologik dunyoqarashni shakllantirish (I.A.Karimov asarlari vositasida): O`qituvchilar uchun qo`llanma; T.N.Qori Niyoziy nomidagi O`zPFITI. – Toshkent: Sharq, 2011. – 196 b.